



O‘ZBEK OILALARIDA AN’ANAVIY VA ZAMONAVIY MUNOSABATLAR

Nurmanov Shahzodbek Mahmadoli o‘g’li

Etnografiya, etnalogiya va antrapologiya

Yo‘nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya

Oila va u bilan bog’liq bo‘lgan jarayonlar Etnografiyada har doim dolzarb mavzulardan bo‘lib kelgan. Chunki har bir millat oilasi o‘ziga xos xususiyatlar bilan bir biridan farq qiladi. Shu jumladan o‘zbek oilalari ham o‘ziga xos turmush va madaniyat tarziga ega hisoblanadi. O‘zbek oilalaridagi qon-qarindoshlik, oilanikoh munosabatlarini o‘rganar ekanmiz bu munosabatlarda an'anaviylik va zamonaviylik belgilarini kuzatamiz. Oilalardagi qarindoshlik munosabatlarining asosini er-xotin, farzandlar va oilaga eng yaqin bo‘lgan qarindoshlar guruhi tashkil etadi. Shuning uchun o‘zbek oilalarida azaldan rivojlanib kelayotgan qarindoshchilik munosabatlari bugungi kunga kelib zamonaviy xususiyatlarga ham aylanib bormoqda. Chunki oilaviy munosabatlar va ular bilan bog’liq urf-odatlar rivojlanib borgani sari qarindosh urug’ munosabatlari ham shunchalik zamonaviy tusga kira boradi.

Аннотация

Семья и связанные с ней процессы всегда были актуальной темой в этнографии. Потому что каждая национальная семья отличается друг от друга своими особенностями. В том числе узбекские семьи имеют свой образ жизни и культуру. Изучая кровно- родственные, семейно-брачные отношения в узбекских семьях, мы наблюдаем в этих отношениях признаки



традиционализма и современности. Основу родственных отношений в семьях составляют супруги, дети и группа родственников, наиболее близких к семье. Поэтому родственные отношения, издавна складывающиеся в узбекских семьях, на сегодняшний день приобретают и современные черты. Потому что по мере развития семейных отношений и связанных с ними традиций родственные родовые отношения становятся все более современными.

Annotation

The family and the processes associated with it have always been a topical issue in ethnography. Because the family of each nation is different from each other with its own characteristics. In particular, Uzbek families have their own way of life and culture. When studying the kinship, family and marriage relations in Uzbek families, we observe the signs of tradition and modernity in these relations. When studying the kinship, family and marriage relations in Uzbek families, we observe the signs of tradition and modernity in these relations. The basis of kinship in families is the couple, children and the group of relatives closest to the family. That is why kinship relations, which have been developing in Uzbek families for a long time, are becoming modern. Because as family relationships and the traditions associated with them develop, so do kinship relationships.

Kalit so`zlar: Oila, nikoh, an’ana, qarindoshik, kelin, kuyov, Qashqadaryo, o‘zbeklar, milliy qadriyat, harakter, axloq, marosim, “qunin-qo‘noq”.

Bugun biz uchun muqaddas hisoblangan oila ijtimoiy tizim sifatida «ota–ona va farzandlar», «er-xotin va qaynona-qaynota», «kelin-kuyov va ularning yaqin



qarindoshlari» kabi munosabatlar majmuidan tarkib topgan bo‘lib, nabiralar, kelin va quda-andalarga bo‘lgan munosabatlar harakteri tomonidan, oilaviy hayot tartibi, oilaviy an'analar va qadriyatlarga ega ekanligi, muloqot shakli, milliy odatlarga rioya etilishi jihatlaridan etnomadaniy xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Bu jihatlar esa xalqimizda, aholida milliy harakter, milliy temperament, milliy orzu, milliy istak, milliy g’urur, milliy sharaf, milliy e’tiqod, milliy qadriyat va milliy xotira tarkib topishida muhim ahamiyat kasb etadi.¹

O‘zbek oilalaridagi o‘zaro hurmat, ehtirom, ota-onaga e’zoz, farzandlarga mehr-shafqat va kichiklarga izzat-ikrom bu kishini barkamol inson, mukammal shaxs sifatida shakllantiradigan, axloqiy va ma’naviy jihatdan go‘zal hamda yetuk qiladigan, insoniy fazilatlarni rivojlantiradigan qadriyatlar bo‘lib hisoblanadi. Va bu qadriyatlarning mazmun-mohiyati farzandlar ongiga dastlab oilada singdiriladi. Sharq oilalari, shu jumladan, o‘zbek oilasiga xos bo‘lgan quyidagi xususiyatlar mavjud²:

birinchidan, oilada erkak mavqeining ustunligi;

ikkinchidan, oila a’zolari orasida yoshiga, jinsiga, oiladagi maqomi (buva, buvi, ota, ona, o‘g‘il, qiz, qaynona, qaynota, qayinsingil, qayinopa, ovsin, kelin, aka, uka, opa, singil va hokazo)ga ko‘ra aniq ifodalangan va qat’iy amal qilinadigan ierarxiyaning mavjudligi;

uchinchidan, an’anaviy oilalarda farzandlar uchun ota-ona, ayniqsa, ota obro‘sining yuqoriligi;

to‘rtinchidan, serfarzandlik, bolajonlik, yoshi ulug‘ avlod vakillarini hurmat

¹Ташбаева Т.Х., Савуров М.Д. Новое и традиционное в быту сельской семьи узбеков. Ташкент, 1989, с. 53-54.

²Shoumarov G’., Sharqona oila., T.-2012 16-bet

THE PROGRESS OF SCIENCE JOURNAL



qilish kabi sifatlarning yuqori darajada ifodalananishi;

beshinchidan, abxaz, osetin, qabardin-bolqor singari xalqlarga ham xos bo‘lgan, hurmat yuzasidan ota-onasi va katta yoshdagi yaqinlar oldida bolasiga mehrini ochiq ifoda etmaslik, ota tomonidan yosh bolasini odamlar oldida qo‘lga olmaslik, farzandini ko‘tarmaslik, u bilan o‘ynamaslik kabi jihatlarning bugungi kunda ko‘pchilik an'anaviy o‘zbek oilalalariga ham xosligini ko‘rishimiz mumkinligi (bu bilan erkaklar o‘zlarining hissiy turg’unligini, ortiqcha hissiyottga berilmasligini, haqiqiy erkak shaxsiga xos xislatlarga ega ekanligini namoyish qilishga harakat qilishadi);

oltinchidan, oiladagi munosabatlarning vertikal harakterga ega ekanligi, ya’ni ayolning erga, farzandlarning ota-onaga, ukaning akaga, singilning opaga bo‘ysunishi.³

Mamlakat iqtisodiy imkoniyatlari hamda aholi moddiy va turmush darajasining o‘sishi o‘z navbatida oilaviy munosabatlardagi o‘zgarishlarga, unda yangi munosabatlarning shakllanishiga, qon-qarindoshchilik munosabatlari doirasining kengayib borishiga olib keldi. Ammo shuni ta’kidlash lozimki, an'anaviy oilaviy-qarindoshchilik munosabatlari hozir ham yetakchi bo‘lib qolishda davom etmoqda.

O‘zbeklarda qadimdan qarindoshlar o‘rtasida doimo mustahkam aloqalar mavjud bo‘lib kelgan. Oilada qarindoshlar qancha ko‘p bo‘lsa, shuncha yaxshi bo‘ladi, deb hisoblashadi. Qarindoshchilikning yaqinligi uzoq va yaqin qarindoshlar doirasida belgilangan bo‘lib, ular orasida onaning aka-ukalari (tog’asi), otaning aka-ukalari (amakisi), onaning opa-singillari (xolasi), otaning

³Shoumarov G’., Sharqona oila., T.-2012. 17-bet

THE PROGRESS OF SCIENCE JOURNAL



opa-singillari (ammasi), ularning farzandlari alohida e'zozlanib, ulardan so'ng boshqa qarindoshlar turadi.

Ushbu qarindoshlar bilan aloqalar hozir ham kuchlidir. Ayniqsa, bobosi va buvisi, shuningdek, aka-ukalar, opa-singillar hamda ham ota, ham ona tarafdan yaqin qarindoshlar o'rtaida mustahkam aloqalar mavjud. O'zbek oilalari, qoida bo'yicha, o'z joylaridan uzoqqa ketishmaydi va bir joyda yashab, bir-birlari bilan doimiy muloqotda bo'lish imkoniyatiga egadirlar. Hozirgi davrda xotin taraf qarindoshlar (qudalar) bilan aloqalar o'sib bormoqda⁴.

Qarindoshlar o'rtaida mehnat qilishda o'zaro yordam an'anasi mavjud bo'lib, buni ayniqsa, oilaviy marosimlarda yoki qandaydir bir turmush qiyinchiliklarida yaqqol kuzatish mumkin.

Qishloq sharoitida qarindoshlar hovlilari ba'zan bir-biriga yaqin joylashgan bo'ladi yoki masofa uncha uzoq bo'lmaydi. Shuning uchun er-xotin ham ishlaydigan ko'plab oilalarda bolalar odatda buvi yoki ishlamaydigan biron ayolning umumiy nazorati ostida bo'ladi.⁵

Qashqadaryo viloyatining bir qator tumanlarida hozirgacha «qunin»-«qo'noq» odathing keng tarqalganligini kuzatish mumkin. Muddatidan oldinroq kelib qolgan mehmonlarni qarindoshlar va qo'shnilar marosim boshlanguniga qadar o'z uylariga olib ketishib, uyda suhbatlashib o'tirishadi. Marosim tashkilotchisi ularga taomlar uzatib turishi lozim bo'ladi. Ammo kamdan kam hollarda ularni (go'shtdan tashqari) olishadi. Shu tariqa yaqin qarindoshlar yoki qo'shnilar mehmon taklif etib, marosim o'tkazayotgan oilaga yordam berishadi.

⁴Кисляков Н.А. Очерки по истории семьи и брака у народов Средней Азии и Казахстана. Ленинград, Наука, 1969, с. 88-89.

⁵Шаниязов К.И. К этнической истории узбекского народа. Т., Фан, 1974, с.4

THE PROGRESS OF SCIENCE JOURNAL



Bundan tashqari, qarindoshlar doirasi baxtsizlik va og'ir damlarda yanada jipslashadi. Mustahkam qarindoshchilik aloqalari an'anasi, ayniqsa, yirik oilaviy tantanalarini nishonlash (masalan, nikoh to'yida) vaqtida aniq ko'zga tashlanadi. Agar kattaroq marosim qilinadigan bo'lsa, odatda dastlab eng yaqin qarindoshlar oilaviy maslahatga taklif qilinadi. Unda tor doirada asosiy masalalar hal qilinadi: xonodonning mehmonlarni kutib olishga tayyorgarligi, nikoh tantanalarining o'tkazilish tartibi, qanday masalalarda yordam kerakligi. Shundan so'ng uyga qarindoshlar o'rtasida hurmati baland keksalar, mahalla vakillari taklif kilinib, nikoh marosimini o'tkazishning aniq tartibi (kuni belgilanadi, nishonlash muddati, mehmonlar soni, taomlar turlari) kelishib olinadi. Odatda har bir oilaviy-qarindoshchilik guruhlarida hamma tomonidan tan olingan mavqeい baland, «yetakchi» kishisi bo'lib, tashkilotchilik xususiyatlari bilan ajralib turgan. Uni hurmat qilishadi, quloq solishadi va u barcha ishlar tashkiliga rahbarlik qiladi. Ba'zan ushbu vazifani mahalla vakillari bajaradi.

Yuqoridagi fikrlarimizdan kelib chiqib shuni xulosa qilishimiz mumkinki, oilaning jamiyat bilan aloqasi qarindoshchilik, qo'shnichilik va mahallachilik orqali namoyon bo'ladi. Bu aloqa ming yillar davomida vujudga kelgan bo'lib, oila u orqali jamiyat ma'naviy hayotida muhim rol o'ynaydi. Oila shakli, tuzilishi hamda oilaviy munosabatlar so'nggi 150 yil davomida muhim o'rghanish ob'ekti sifatida tadqiqotchilar diqqat makazida edi. Bugungi kunda etnologiyaning oilashunoslikka doir tadqiqotlar natijalariga tayanib endilikda bu muammolarni bir butunlikda o'rghanish imkoniyati paydo bo'ldi. Oila shakllari, turlari va demografik holatidagi o'zgarishlar etnik jarayonlarning ta'sirida sodir bo'lmoqda.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro`yxati:

THE PROGRESS OF SCIENCE JOURNAL



1. Mirziyoyev Sh.M. mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag‘ishlangan ma’ruzasi
2. Islom ensiklopediyasi. Zuhriddini Husniddinov tahriri ostida, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2004
3. Iso Jabborov. O‘zbeklar.(an’anaviy xo‘jaligi, turmush tarsi va etnomadaniyati) “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2008
4. Shoumarov G’, Rasulova Z. Oila ensiklopediyasi. Toshkent-2016.
5. Шаниязов К.Ш. Кэтнической истории узбекского народа. Т., Фан, 1974, с.4
6. Shoumarov G’, Sharqona oila., T.-2012.